O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

TRANSPORT INSHOOTLARI UCHUN TEMIRBETON KONSTRUKSIYALARI. UMUMIY TEXNIK SHARTLAR

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti

Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #AW6TADQQAC - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

So‘z boshi

1 STQ 21 “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi” Standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mitasi tomonidan **ISHLAB CHIQILDI**.

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2025 yil 23-oktabr 115/MSt-sonli buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI.**

3 O‘z DSt 3026:2021 **O‘RNIGA AMALGA KIRITILDI**.

Ushbu milliy standartni va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish, qayta ko‘rib chiqish yoki bekor qilish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarda chop etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishli

STANDARTLAR INSTITUTI #AW6TADQQAC - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

Mundarija

1. Qo‘llanish doirasi	1
2. Standartlarga havolalar	2
3. Tasniflash va shartli belgilar	4
4. Texnik talablar	5
5. Xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish talablari	10
6. Qabul qilish qoidalari	11
7. Nazorat usullari	13
8. Transportda tashish va saqlash	14
9. Foydalanish bo’yicha ko‘rsatmalar	15
10. Ishlab chiqaruvchining kafolatlari	16
A ilova (normativ)	17
Bibliografiya	18
Bibliografik ma’lumotlar	19

STANDARTLAR INSTITUTI #AW6TADQQAC - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

TRANSPORT INSHOOTLARI UCHUN TEMIRBETON KONSTRUKSIYALARI. UMUMIY TEXNIK SHARTLAR

КОНСТРУКЦИИ ЖЕЛЕЗОБЕТОННЫЕ ДЛЯ ТРАНСПОРТНЫХ СООРУЖЕНИЙ. Общие технические условия

Reinforced concrete constructions of transport vehicles

General specifications

Amalga kiritish sanasi: 23 noyabr 2025 yil

1 Qo‘llanish doirasi

Ushbu milliy standart transport chorrahalari, ko‘priklar, ko‘prik yo‘li, osma quvur, osma ko‘prik, tunnellarni qurish uchun mo‘ljallangan transport inshootlari uchun temir-beton konstruksiyalarga (keyingi o‘rinlarda konstruksiyalar deb yuritiladi) nisbatan qo‘llaniladi va konstruksiyalarga qo‘yiladigan texnik talablarni, xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish talablarini, nazorat usullarini, qabul qilish qoidalarini, transportda tashish va saqlashga, foydalanishga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi.

Konstruksiyalar [1] bo‘yicha minus 30 °C gacha eng sovuq besh kunlik tashqi havoning hisoblangan qishki harorati bo‘lgan, seysmikligi 9 ballgacha bo‘lgan hududlarda qo‘llaniladi.

Gorizontal ish holatiga ega bo‘lgan konstruksiyalarga buyurtma berishda va boshqa hujjatlarda yozish misoli:

Rigel R(P) 1 - 15,21.175.90 O‘zMSt__ ____:2025;

Rigel R(P) 1, uzunligi 15,21 m, eni 175 cm, balandligi 90 cm, O‘zMSt__ _____:2025 bo‘yicha tayyorlangan.

To‘sin L (Лс) -5,1.60.50 – C O‘zMSt_ _____:2025;

To‘sinning o‘rtacha uzunligi 5,1 m, kengligi 60 cm, balandligi 50 cm bo‘lib, O‘zMSt_____:2025 bo‘yicha sulfatga chidamli sementda tayyorlangan.

KP(ПС) plitasi - 6.99.30-100 O‘zMSt__ _____:2025;

Uzunligi 6 m, eni 99 cm, balandligi 30 cm bo‘lgan zo‘riqtirilmaydigan armaturali uzluksiz kesimli KP(ПС) ko‘prik plitasi YK (НК) 100 yuklamasi ostida O‘zMSt_____:2025 bo‘yicha ishlab chiqarilgan.

Vertikal ish holatiga ega bo‘lgan konstruksiyalar buyurtma berishda va boshqa hujjatlarda yozish misoli:

SKB (БСП) tayanch devori bloki к - 8. 148.50 O‘zMSt_____:2025;

Qiya tayanch devorining SKB (БСП) bloki balandligi 8 m, uzunligi 148 cm, qalinligi 50 cm bo‘lib, O‘zMSt_____:202_ bo‘yicha tayyorlangan.

VU (СВ) ustunlar- 6.36/33.35 O‘zMSt_ _____:2025;

Ustunning vertikal balandligi 6 m, kesimi 36/33.35 cm, O‘zMSt__ _____:2025 bo‘yicha tayyorlangan.

Rasmiy nashr

STANDARTLAR INSTITUTI #AW6TADQQAC - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

2 Standartlarga havolalar

Ushbu milliy standartda quyidagi standartlarga qilingan havolalardan foydalanildi:

ISO 21832:2018 Воздух на рабочем месте. Металлы и металлоиды в частицах в воздухе. Требования к оценке процедур измерений

(Rasmiy nashr:Workplace air — Metals and metalloids in airborne particles — Requirements for evaluation of measuring procedures)

ISO 24095:2009 Воздух на рабочем месте. Руководство по измерению содержания вдыхаемого кристаллического кремния *(Rasmiy nashr: Workplace air -- Guidance for the measurement of respirable crystalline silica)*

ГОСТ 12.0.004-2015 Система стандартов безопасности труда. Организация обучения работающих безопасности труда. Общие положения

ГОСТ 12.1.003-2014 Система стандартов безопасности труда. Шум. Общие требования безопасности

ГОСТ 12.1.005-88 Система стандартов безопасности труда. Общие санитарно-гигиенические требования к воздуху рабочей зоны

ГОСТ 12.1.019-2017 Система стандартов безопасности труда. Электробезопасность. Общие требования и номенклатура видов защиты

ГОСТ 12.1.030-81 Система стандартов безопасности труда. Электробезопасность. Защитное заземление, зануление

ГОСТ 12.2.003-91 Система стандартов безопасности труда. Оборудование производственное. Общие требования безопасности

ГОСТ 12.3.009-76 Система стандартов безопасности труда. Работы погрузо-разгрузочные. Общие требования безопасности

ГОСТ Р 12.3.047-2012 Система стандартов безопасности труда. Пожарная безопасность технологических процессов. Общие требования. Методы контроля

ГОСТ 12.4.021-75 Система стандартов безопасности труда. Системы вентиляционные. Общие требования

ГОСТ 12.4.026-2015 Система стандартов безопасности труда. Цвета сигнальные, знаки безопасности и разметка сигнальная. Назначение и правила применения. Общие технические требования и характеристики. Методы испытания

ГОСТ 12.4.222-2002 Обувь специальная с верхом из кожи для защиты от вибрации. Технические условия

ГОСТ 17.2.3.02-2014 Охрана природы. Атмосфера. Правила установления допустимых выбросов загрязняющих веществ, промышленными предприятиями

ГОСТ 17.4.3.05-86 Охрана природы. Почвы.Требования к сточным водам и их осадками для орошения и удобрения

ГОСТ 162-90 Штангенглубиномеры. Технические условия

ГОСТ 166-89 Штангенциркули. Технические условия

ГОСТ 310.1-76 Цементы. Методы испытаний. Общие положения

ГОСТ 310.2-76 Цементы. Методы определения тонкости помола

ГОСТ 310.3-76 Цементы. Методы определения нормальной густоты, сроков схватывания и равномерности изменения объема

ГОСТ 310.4-81 Цементы. Методы определения предела прочности при изгибе и сжатии

ГОСТ 427-75 Линейки измерительны металлические. Технические условия

ГОСТ 3282-74 Проволока стальная низкоуглеродистая общего назначения. Технические условия

ГОСТ 7473-2010 Смеси бетонные. Технические условия

ГОСТ 7502-98 Рулетки измерительные металлические. Технические условия

ГОСТ 8267-93 Щебень и гравий из плотных горных пород для строительных работ. Технические условия

STANDARTLAR INSTITUTI #AW6TADQQAC - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

ГОСТ 8269.0-97 Щебень и гравий из плотных горных пород и отходов промышленного производства для строительных работ. Методы физико-механических испытаний

ГОСТ 8735-88 Песок для строительных работ. Методы испытаний

ГОСТ 8736-2014 Песок для строительных работ. Технические условия

ГОСТ 8829-2018 Изделия строительные железобетонные и бетонные заводского изготовления. Методы испытаний нагружением. Правила оценки прочности, жесткости и трещиностойкости

ГОСТ 10060-2012 Бетоны. Методы определения морозостойкости

ГОСТ 10180-2012 Бетоны. Методы определения прочности по контрольным образцам

ГОСТ 10922-2012 Арматурные и закладные изделия, их сварные, вязанные и механические соединения для железобетонных конструкций. Общие технические условия

ГОСТ 12004-81 Сталь арматурная. Методы испытания на растяжение

ГОСТ 12730.1-2020 Бетоны. Методы определения плотности

ГОСТ 12730.5-2018 Бетоны. Методы определения водонепроницаемости

ГОСТ 13015-2012 Изделия бетонные и железобетонные для строительства. Общие технические требования. Правила приемки, маркировки, транспортирования и хранения

ГОСТ 14019-2003 Материалы металлические. Метод испытания на изгиб

ГОСТ 14098-2014 Соединение сварные арматуры и з акладных изделий железобетонных конструкций. Типы, конструкции и размеры

ГОСТ 17624-2012 Бетоны. Ультразвуковой метод определения прочности

ГОСТ 18105-2018 Бетоны. Правила контроля прочности

ГОСТ 19903-2015 Прокат листовой горячекатанный. Сортамент

ГОСТ 22266-2013 Цементы сульфатостойкие. Технические условия

ГОСТ 22690-2015 Бетоны. Определение прочности механическими методами неразрушающего контроля

ГОСТ 22904-2023 Конструкции железобетонные. Магнитный метод определения толщины защитного слоя бетона и расположения арматуры

ГОСТ 23279 - 2012 Сетки арматурные сварные для железобетонных конструкций и изделий. Общие технические условия

ГОСТ 23732 - 2011 Вода для бетонов и строительных растворов. Технические условия

ГОСТ 24211-2008 Добавки для бетонов и строительных растворов. Общие технические условия

ГОСТ 24297-2013 Верификация закупленной продукции. Организация проведения и методы контроля

ГОСТ 26433.1-89 Система обеспечения точности геометрических параметров в строительстве. Правила выполнения измерений. Элементы заводского изготовления

ГОСТ 26633-2015 Бетоны тяжелые и мелкозернистые. Технические условия

ГОСТ 27772-2021 Прокат для строительных стальных конструкций. Общие технические условия

ГОСТ 30108-94 Материалы и изделия строительные. Определение удельнойэффективной активности естественных радионуклидов

ГОСТ 30459-2008 Добавки для бетонов и строительных растворов. Определение и оценка эффективности

ГОСТ 31108-2020 Цементы общестроительные. Технические условия

ГОСТ 31424-2010 Материалы строительные нерудные из отсевов дробления плотных горных пород при производстве щебня. Технические условия

O‘z DSt 12.0.001:2005 Mehnat xavfsizligi, mehnatni ilmiy tashkil qilish sanoat sanitariya va gigiyenasi, standartlari tizimi. Asosiy qoidalar

STANDARTLAR INSTITUTI #AW6TADQQAC - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

O‘z DSt 838:2023 Temir-beton mahsulotlar yasash uchun po‘lat qoliplar. Texnikaviy shartlar

O‘z DSt ISO 1920-7:2019 Beton sinovlari - 7-qism: Qattiq betonni buzmasdan sinovdan o‘tkazish

O‘z DSt 3025:2015 Tekis va davriy profilning armaturali prokati. Texnikaviy shartlar

O‘zMSt ISO 24511:2024 Ichimlik suvi va oqava suv xizmatlari bilan bog‘liq faoliyat - oqava suvlarni bos’hqarish va oqava suv xizmatlarini baholash bo’yicha ko’rsatmalar

Izoh - Ushbu standartdan foydalanishda Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlariga muvofiq standartlarni O‘zbekiston Respublikasi hududida amal qilinishi tekshirilishi kerak. Agar havola qilingan standart almashtirilgan (o‘zgartirilgan) bo‘lsa, unda ushbu standartdan foydalanishda almashtirilgan (o‘zgartirilgan) standartga amal qilish kerak. Agar havola qilinayotgan standart almashtirilmasdan bekor qilingan bo‘lsa, unga havola qilingan qoida ushbu havolaga taalluqli bo‘lmagan qismida qo‘llaniladi.

3. Tasniflash va shartli belgilar

3.1. Ushbu bo‘limda va keyinchalik ushbu standart matni bo‘ylab konstruksiyalar turlarining quyidagi qisqartmalari qabul qilingan:

R(Р) - turidagi rigellar;

КР(ПС) - turdagi kuchlanmaydigan armatura bilan yaxlit kesimdagi ko‘prik plitalari;

O‘Р (ПП) - turdagi o‘tish plitalari;

ТКВ (БО) - turidagi ko‘prikning tayanch bloklari;

TUB (БНУ) - turidagi ustun uchliklarining bloklari;

UOB (БПК) - turdagi ustun osti bloki;

OTUB (БНПО) - turdagi oraliq tayanchlar uchliklarning bloklari;

SKB (БСП) - turdagi seysmik mintaqa bloki;

TQB (БП) - turdagi to‘siqlar bloklari;

AYP (ПРП) - turdagi ajratuvchi yo‘l plitalari;

L (Л) – turidagi to‘sinlar;

TDB (БПС) - turdagi tirgovuch devorlar bloklari;

TB (БУ) - turdagi ustun bloki;

VU (СВ) - turidagi vertikal ustunlar;

QU (СН) - turdagi qiya ustunlar;

T (КФ) - turdagi kontroforslar;

TPK (ПТМ) - turdagi yasama trotuar blokning ko‘prik trotuar plitalari;

KB (КБ)- turdagi karniz bloklari;

G‘U (БК)- tarkibli trotuar blokining g‘ildiraklarni urib tushiruvchi bloklari;

F (Ф) - turdagi poydevorlar.

DTE (КДС) – turidagi drenaj tizimi tarkibidagi temir-beton elementlar.

3.2 Konstruksiyalar nomenklaturasi quyidagilarga bog‘liq holda namunaviy o‘lchamlar qatorini ifodalaydi:

- transport inshootidagi konstruksiyalarning ishlash sharoitlari;
- konstruktiv xususiyatlari.

3.2.1 Ishlash sharoitiga qarab konstruksiyalar yuk ko‘taruvchi va yuk ko‘tarmaydigan konstruksiyalarga bo‘linadi.

3.2.2 Yuk ko‘taruvchi konstruksiyalarga quyidagilar kiradi:

- R turidagi rigellar; КР(ПС) turidagi plitalar; O‘Р (ПП) turidagi plitalar; ТКВ (БО) turidagi bloklar; TUB (БНУ) turidagi bloklar; UOB (БПК) turidagi bloklar; OTUB (БНПО)

STANDARTLARNI TEKSHIRISH HAQIDA - O‘zDSt 2022:2026 TURIDAGI STANDARTLAR UCHUN

turidagi bloklar; SKB (БСП) turidagi bloklar; TQB (БП)turidagi bloklar; AYP (ПРП) turidagi plitalar; L (Л) turidagi to‘shamalar; TDB (БПС) turidagi bloklar; TB (БУ) turidagi blok; VU (СВ) turidagi ustunlar; QU (СН) turidagi ustunlar.

3.2.3 Yuk ko‘tarmaydigan konstruksiyalarga quyidagilar kiradi:

T(КФ) turidagi kontrforslar; TPK (ПТМ) turidagi plitalar; G‘U (БК) turidagi bloklar; KB (КБ) turidagi bloklar; F(Ф) tipidagi poydevorlar, DTE (КДС) turidagi elementlar.

3.3 Konstruktiv xususiyatlariga qarab konstruksiyalar quyidagilarga bo‘linadi:

- gorizontal ish holatiga ega bo‘lgan konstruksiyalar;
- vertikal ish holatiga ega bo‘lgan konstruksiyalar.

3.3.1 Gorizontal ish holatidagi konstruksiyalarga quyidagilar kiradi:

R(Р) turidagi rigellar; KP(ПС) turidagi plitalar; O‘P (ПП) turidagi plitalar; TKB (БО) turidagi bloklar; TUB (БНУ) turidagi bloklar; UOB (БПК) turidagi bloklar; OTUB (БНПО) turidagi bloklar; SKB (БСП) turidagi bloklar; TQB (БП) turidagi bloklar; AYP (ПРП) turidagi plitalar; L (Л) turidagi ustunlar; TPK (ПТМ) turidagi plitalar; G‘U (БК) turidagi bloklar; KB (КБ) turidagi bloklar; Ф turidagi poydevorlar; DTE (КДС) turidagi elementlar.

3.3.2 Vertikal ishchi holatdagi konstruksiyalarga quyidagilar kiradi:

TDB (БПС) turidagi bloklar; TB (БУ) turidagi blok; VU(СВ) turidagi ustunlar; QU (СН) turidagi ustunlar; T (КФ) turidagi kontrforslar.

3.4 Konstruksiyalar nomenklaturasini kengaytirishda mazkur standart talablaridan foydalanish kerak.

3.5 Konstruksiyalarning markalari (tovush belgilari) chiziqcha bilan ajratilgan harfli-raqamli guruhlardan iborat bo‘ladi.

1-guruh - harf yoki harf va raqam guruhi - konstruksiyalarning qisqa nomi va konstruksiya bajarilishini (zaruriyat bo‘lganda)belgilashi kerak.

2-guruh - konstruksiyalarni gabarit o‘lchamlari.

3-guruh- qo‘shimcha tavsiflari- armatura sinfi yoki diametri, sement ko‘rinishi, og‘irlik qiymati (kerak bo‘lganda).

4 Texnik talablar

4.1 Transport inshootlari uchun temirbeton konstruksiyalar ushbu milliy standart talablariga, ГОСТ 13015 va [2] da belgilangan tartibda transport inshootiga yakka tartibdagi konstruktorlik loyiha hujjatlariga muvofiq bo‘lishi kerak.

Konstruksiyalar o‘rnatilgan tartibda tasdiqlangan texnologik hujjat bo‘yicha ishlab chiqarilishi kerak.

Konstruksiyalar O‘z DSt 838 talablariga muvofiq po‘lat qoliplarda tayyorlanishi kerak.

4.2 Asosiy parametrlar va o‘lchamlar

4.2.1 KP(ПС) turdagi kuchlanmaydigan armaturalar bilan yaxlit kesishgan ko‘prik plitalari ushbu standartning A ilovasida keltirilgan sinov sxemasi bo‘yicha nazorat yuklari bilan mustahkamligi, qattiqligi va yoriqqa chidamliligi bo‘yicha sinovdan o‘tkazilishi kerak.

4.2.2 Armaturagacha bo‘lgan beton himoya qatlamining qalinligi buyurtmachining konstruksiyaga oid loyiha hujjatlarida ko‘rsatilishi kerak, biroq bu o‘lcham 30 mm dan kam bo‘lmasligi lozim.

4.3 Betonga talablar

4.3.1 Konstruksiyalar ГОСТ 26633 bo‘yicha og‘ir betondan ishlab chiqarilishi kerak.

4.3.2 Beton markasi zichligi bo‘yicha D 2200 dan D 2500 kg/m^3 gacha bo‘lishi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI HAMKORLIGIDA 03.02.2026 TIFLON STANDART ELEKTRONIKA TIZIMI

4.3.3 Loyiha yoshidagi beton sinfi muayyan transport inshooti uchun loyiha hujjatlarida ko‘rsatilishi kerak.

4.3.4 Konstruksiyalar betonining sovuqqa chidamlilik bo‘yicha markasi transport inshootlari foydalaniladigan hududning aniq iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda iste’molchining konstruksiyaga buyurtmasida ko‘rsatilishi kerak.

Konstruksiyaga berilgan buyurtmada sovuqqa chidamlilik bo‘yicha ma’lumotlar bo‘lmasa, sovuqqa chidamlilik bo‘yicha marka F 200 deb qabul qilinishi kerak.

4.3.5 Suv o‘tkazmaslik bo‘yicha konstruksiyalar betonining markasi iste’molchining konstruksiyaga buyurtmasida transport inshootida foydalaniladigan hududning aniq iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda ko‘rsatilishi kerak.

Konstruksiyaga buyurtmada suv o‘tkazmaslik bo‘yicha ko‘rsatkichlar bo‘lmasa, suv o‘tkazmaslik bo‘yicha markani W6 deb qabul qilish lozim.

4.3.6 Betonning bo‘shatish mustahkamligi qiymati loyihaviy mustahkamlikka nisbatan foiz hisobida kamida 80% bo‘lishi kerak, bunda beton 28 kunlik yoshda loyihaviy mustahkamlikka erishishi kerak.

4.3.7 Beton konstruksiyalari uchun ГОСТ 7473 ga muvofiq beton aralashmalar qo‘llanishi kerak.

4.4 Xom ashyo va materiallarga qo‘yiladigan talablar

4.4.1 Konstruksiyalarni ishlab chiqarish uchun quyidagi xom ashyo va materiallardan foydalanish kerak:

ГОСТ 31108 bo‘yicha 42,5H, 52,5H sinfli SEM (ЦЕМ) 0, SEM (ЦЕМ) I, SEM (ЦЕМ) II/A-Ш turdagi portlandsement, siqilishga mustahkamligi [3] talablariga muvofiq:

- 40 MPa B15, B22,5, B25, B27,5 sinfidagi betonlar uchun;
- 50 MPa B35 sinfidagi betonlar uchun;

ГОСТ 22266 bo‘yicha 42,5 H, 52,5H sinfidagi SEM (ЦЕМ) I CC, SEM (ЦЕМ) II/ A-Ш CC turidagi sulfatga chidamli portlandsement, siqilishdagi mustahkamligi [3] talablarga muvofiq:

- 40 MPa B15, B22,5, B25, B27,5 sinfidagi betonlar uchun;
- 50 MPa B35 sinfidagi betonlar uchun.

Sulfatga chidamli sementni qo‘llash zarurati [4] ga muvofiq plitalarni ishlatish hududida sulfat agressiyasi mavjud bo‘lganda plitalarga buyurtmada ko‘rsatilishi kerak.

ГОСТ 8267 bo‘yicha qurilish ishlari uchun qattiq tog‘ jinslaridan shag‘al, yirik donalarning to‘ldirgichi ko‘pi bilan 20 mm bo‘lishi kerak;

ГОСТ 8736 bo‘yicha qurilish uchun qumlar, ГОСТ 31424 bo‘yicha shag‘al ishlab chiqarishda qattiq tog‘ jinslarini maydalangan chiqitlardan qumlar, ГОСТ 8736 bo‘yicha qum aralashmalari (tabiatga oid) va ГОСТ 31424 bo‘yicha qum (maydalangan) tarkibida:

- oxirgi massasi bo‘yicha kamida 20 % qum aralashmalari ГОСТ 8736 talablariga javob berishi kerak;
- ishchi armatura uchun O‘z DSt 3025 bo‘yicha 35 GS (35ГС), 25 G2C (25Г2С) marka A400 sinf davriy profil armatura prokati;
- stropovka mahsulotlari uchun O‘z DSt 3025 bo‘yicha St 3sp (Ст 3сп), St 3ps (Ст 3пс) markalar A240 sinf tekis armatura prokati;
-ГОСТ 19903 bo‘yicha issiqlayin juvalangan list, ГОСТ 27772 bo‘yicha mustahkamlik sinfi C235 bo‘lgan qo‘yma buyumlar uchun.

4.4.2 Konstruksiyalarning beton aralashmasini tayyorlash uchun to‘ldiruvchilar va bog‘lovchilar ГОСТ 26633 ga muvofiq bo‘lishi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI "AVTOAZQQAC" 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

4.4.3 Beton aralashmalarni tayyorlash uchun ГОСТ 23732 bo‘yicha beton uchun suv va qurilish aralashmalari qo‘llanishi kerak.

4.4.4 Konstruksiyalarning betoni uchun ГОСТ 7473 talablariga muvofiq ishlatishga tayyor bo‘lgan beton aralashmalari qo‘llanilishi kerak.

4.4.5 Beton aralashmasiga qo‘shish uchun plastifikatsiyalovchi, havo tortuvchi va kompleks qo‘shimchalar ГОСТ 24211 talablariga javob berishi kerak.

Beton aralashmasiga qo‘shimchalarni kiritish miqdori qo‘shimchalarga normativ hujjatlar talablariga javob berishi kerak.

Turli xil kimyoviy qo‘shimchalarning umumiy miqdori (havo tortuvchi, plastifikatsiyalovchi, betonning mustahkamligini oshiruvchi qotishni tezlashtiruvchi) beton qorishmasiga kiritilganda sement massasining 5% dan oshmasligi kerak.

Qo‘shimchalarni qo‘llashdan oldin ularning samaradorligi qo‘llaniladigan materiallarning turi va sifatiga va ishlab chiqaruvchi zavodda qabul qilingan beton aralashmasini tayyorlash texnologiyasiga qarab ГОСТ 30459 ga muvofiq aniqlanishi kerak.

4.4.6 Sement, shag‘al, qum, armatura prokati konstruksiyalarini ishlab chiqarishdan oldin ГОСТ 24297 bo‘yicha verifikatsiya (kirish nazorati)dan o‘tishi kerak.

4.4.7 Tabiiy radionuklidlarining (A_{sam}) o‘ziga xos solishtirma samarali faolligi qiymati konstruksiyalarni ishlab chiqarishda ishlatiladigan to‘ldirgichlar va bog‘lovchilarning ГОСТ 30108 va [5] ga muvofiq:

- aholi punktlari va rejadagi qurilish maydoni uchun 370 dan 740 Bq/kg gacha bo‘lishi kerak;
- aholi yashaydigan joylardan tashqari 740 dan 1500 Bq/kg gacha bo‘lishi kerak.

4.4.8 Armatura prokatlarining ekvivalent dozasidagi gamma nurlanishning maksimal darajasi [6] da ko‘rsatilganga muvofiq bo‘lishi kerak.

4.5 Armatura, o‘rnatish qismlari va stropovka mahsulotlarga talablar

4.5.1 Armatura, o‘rnatish qismlari va stropovka mahsulotlari konstruksiyada ularning holati konstruktorlik hujjatlariga muvofiq bo‘lishi kerak.

4.5.2 Loyiha uzunligini ishchi armaturani olish uchun ГОСТ 14098 bo‘yicha quyidagi biriktiradigan birikishlar qo‘llanilishi kerak:

- kontakt-biriktiradigan payvand;
- po‘lat qisqichli qoplama bilan elektr toki yordamida payvandlash;
- tayanch(sterjen)dan qoplama bilan choklarni qo‘l bilan elektr toki yordamida payvandlash;

4.5.3 Armatura bo‘shatish mustahkamligi elementlari ГОСТ 14098 bo‘yicha kontakt-biriktiradigan payvand bilan ishlab chiqarish kerak.

4.5.4 Konstruksiyalarning fazoviy karkasini yig‘ish ГОСТ 3282 bo‘yicha diametri 2 mm bo‘lgan to‘quv simi bilan amalga oshirilishi kerak. Tayanch (sterjen)lar kesishgan joylarining yarmidan kam bo‘lmagan qismi yopishqoqlik usulida biriktirilishi, burchak va oxirgi kesishish joylari to‘liq bog‘lanishi kerak.

Karkas qattiqligini ta’minlash maqsadida armatura kesisishlarni 10% ni elektr yoylar bilan payvandlab ushlatish amalga oshiriladi.

4.6 Ishlab chiqarishning aniqligiga talablar

4.6.1 Konstruksiyalarning geometrik parametrlari qiymati 1-jadvalda ko‘rsatilgan chegaraviy qiymatlardan oshmasligi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #AW6TADQQAC - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

1-jadval Konstruksiyalarning geometrik parametrlari qiymati millimetrlarda

Geometrik parametrlarning og‘ish ko‘rinishi	Geometrik parametrlarning nomlanishi	Chegaraviy og‘ishlar qiymati
Chiziqli o‘lchamdan og‘ishlar	*Gorizontal ishchi holatiga ega bo‘lgan konstruksiyalar uchun*	
	Uzunligi - 3 m dan - 3 m yuqori Eni Qalinligi (balandligi) - 300 mm dan - 300 mm yuqori	 ±10 +20; (- 10) ±10 ± 5 ± 10
	Vertikal ishchi holatiga ega bo‘lgan konstruksiyalar uchun	
	Uzunligi Eni Balandligi	± 10 ± 10 + 20 (-10)
	Tirqishlar, teshiklar, chuqurlar, turtib chiqqan joylarning o‘lchamlari va joylashishi	± 5
	Betonning himoya qalinligi	± 5
To‘g‘ri chiziqli yuzalardan og‘ishlari	Konstruksiya yuzalarining to‘g‘ri chiziqli profili: - 1m gacha uzunlikda - 9 m gacha to‘liq uzunligi bo‘yicha - 9 m dan yuqori 18 m gacha - 18 m dan yuqori 25 m gacha	 ko‘pi bilan 2 ko‘pi bilan 10 ko‘pi bilan 18 ko‘pi bilan 20
O‘rnatish qismlarining loyiha holatidan og‘ishlar	O‘rnatish qismlarining holati: - tekislikda - tekislikdan	 ± 20 ± 3
Stropovka mahsulotlarning loyiha holatidan og‘ishlar	Stropovka mahsulotlarning holati : - bo‘ylama o‘qi bo‘ylab; - perpendikulyar bo‘ylama o‘q	 ± 30 ± 5

4.7 Yuzalarning sifatiga va tashqi ko‘rinishiga talablar

4.7.1 Beton yuzasining xususiyatlari - rakovinalar, oqimlar, chuquriiklar, atroflarning haqiqiy o‘lchamlari 2-jadvalda ko‘rsatilgan yo‘l qo‘yilgan qiymatlardan oshmasligi kerak.

2-jadval Beton sirtining xususiyatlari millimetrlarda

Yuzalar	Yo‘l qo‘yilgan qiymatlar				
	G‘ovaklar		Mahalliy (balandligi) va chuqurlar (chuqurligi)	Beton siniqlari	
	Diametri	Chuqurligi		Chuqurligi	1 metr qirraga to‘g‘ri keladigan jami uzunlik
Yuzasi (ishchi va yon tomon)	6	3	3	5	50
Yuzasi bo‘lmagan (boshqalar)	15	5	5	10	100

STANDARTLAR INSTITUTI #AW6TADQQAC - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

4.7.2 Konstruksiya yuzalarida quyidagilarga yo‘l qo‘yilmaydi:

- ko‘pi bilan kengligi 0,1 mm va ko‘pi bilan 150 mm uzunlikdagi yoriqlarga, kirishish yuzalari bundan mustasno;
- yog‘li va zangli dog‘larga;
- armatura ochilishiga.

4.7.3 O‘rnatish qismlari va stropovka mahsulotlari beton oqib to‘planib qolgan joylaridan tozalangan bo‘lishi kerak.

4.8 O‘rab-joylash

Konstruksiyalarni o‘rab-joylamasdan yetkazib berishga yo‘l qo‘yiladi.

4.9 Tamg‘alash

4.9.1 Konstruksiyalarni tamg‘alash mazkur milliy standartning va ГОСТ 13015 talablariga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

4.9.2 Har bir konstruksiyalarga quyidagi tamg‘alash yozuvlari tushirilgan bo‘lishi kerak:

- konstruksiya markasi;
- ishlab chiqaruvchi-korxonaning qisqa nomlanishi yoki tovar belgisi (mavjud bo‘lganda);
- texnik nazorat shtampi;
- konstruksiyalarni ishlab chiqish sanasi (kuni, oy, yil);
- konstruksiya massasining qiymati, t;
- transportda tashish va saqlashda montaj belgilari “Tirash joyi”.

4.9.3 Tamg‘alash yozuvlari quyidagi usullar bilan yon tomon yaqiniga konstruksiyani ko‘rinadigan joyiga tushirish kerak:

- trafaret bo‘yicha bo‘yash;
- shtamplar yordamida bo‘yash;
- tamg‘alangan moshinalar bilan;
- konstruksiyalarni shakllantirishda shtamplash.

Issiqlik bilan ishlov berishdan keyin sovib qolmagan konstruksiyalar yuzasida tamg‘alash yozuvlarini bo‘yoq yoki mahsus qalam bilan qo‘lda qo‘llashga yo‘l qo‘yiladi.

5 Xavfsizlik va atrof muhitni muhofaza qilish talablari

5.1 Konstruksiyalar zaharli emas, yong‘in-portlashdan havfsiz, ishlab chiqarishda, transportda tashishda va foydalanishda xavf tug‘dirmaydi.

5.2 Odamlar xayoti va sog‘lig‘i havfsizligini ta’minlash, konstruksiyalarni ishlab chiqarishda atrof muhitni muhofaza qilish mazkur milliy standart talablariga rioya qilinishi kerak.

5.3 Konstruksiyalarni ishlab chiqarishda ishlaydiganlar belgilangan tartibda ishga qabul qilingandan so‘ng dastlabki va davriy tibbiy ko‘rikdan o‘tishlari kerak, shuningdek xavfsizlik texnikasi bo‘yicha instruktaj va ish joyida o‘qitish ГОСТ 12.0.004 va O‘z DSt 12.0.001 ga muvofiq amalga oshiriladi.

5.4 Konstruksiyalarni ishlab chiqarishga bog‘liq shaxslar amaldagi normativ hujjatlarga muvofiq individual himoya vositalari bilan ta’minlanishlari kerak.

5.5 Konstruksiyalarni ishlab chiqarishda elektr xavfsizligi ГОСТ 12.1.019 va ГОСТ 12.1.030 ga muvofiq bo‘lishi kerak.

5.6 Ish joylaridagi yo‘l qo‘yilgan shovqin va tebranish darajalari ГОСТ 12.1.003, [7] belgilangan qiymatlardan oshmasligi kerak.

5.7 Ish joylarida tebranishning ruxsat etilgan darajalari [8] belgilangan qiymatlardan oshmasligi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #AW6TADQQAC - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

5.8 Vibratsiyadan himoya qilish uchun ГОСТ 12.4.222 bo‘yicha maxsus poyabzaldan foydalanishlari kerak.

5.9 Yuklash-tushirish ishlarda ГОСТ 12.3.009 va [9] bo‘yicha xavfsizlik talablariga rioya qilishlari kerak.

5.10 Ishlab chiqarish uskunalari ГОСТ 12.2.003 ga muvofiq bo‘lishi kerak.

5.11 Xavfsizlikni ta’minlash, odamlarni hayotini va sog‘lig‘ini saqlash, ishlab chiqarish va ma’muriy maishiy ob’yektlarda moddiy zararni kamaytirish uchun ГОСТ 12.4.026 ga muvofiq xavfsizlik belgilari, signal belgilari va chiroqli signallar qo‘llanilishi kerak.

5.12 Hamma ishlab chiqarish uchastkalari ГОСТ Р 12.3.047 ga muvofiq yong‘inni o‘chirish vositalari bilan ta’minlangan bo‘lishi kerak.

5.13 Ishlab chiqarish xonalarining mikro iqlimi [10] talablariga javob berishi kerak.

5.14 Yopiq ishlab chiqarish xonalari ГОСТ 12.1.005, ГОСТ 12.4.021, ГОСТ 12.04.21 yoki ISO 24095, ISO 21832 ga muvofiq oqib keluvchi-tortuvchi ventilyatsiya, [11] ga muvofiq isitish va konditsionerlash bilan ta’minlanishi kerak.

5.15 Ishlab chiqaruvchining ma’muriy va maishiy binolari [12] talablariga javob berishi kerak.

5.16 Konstruksiyalarni ishlab chiqarish jarayonida ГОСТ 17.2.3.02 bo‘yicha atrof muhit muhofazasi talablariga rioya etish kerak.

5.17 Oqava suvlarga talablar ГОСТ 17.4.3.05, O‘zMSt ISO 24511 bo‘yicha amalga oshiriladi.

5.18 Konstruksiyalarni ishlab chiqarish chiqindilari ekologik jihatdan xavfsiz bo‘lib, [13] ga muvofiq utilizatsiya qilinadi yoki “ikkilamchi moddiy resurslar” sifatida ishlatilishi mumkin.

6 Qabul qilish qoidalari

6.1 Konstruksiyalar mazkur milliy standart talablari va ГОСТ 13015 ga muvofiq ishlab chiqarish-korxonasining texnik nazorat bo‘limi tomonidan qabul qilinishi kerak.

6.2 Konstruksiyalarni qabul qilishda quyidagilarni amalga oshirilishi kerak:

- tutib turuvchi konstruksiyalar uchun donalab;
- tutib turmaydigan konstruksiyalar uchun to‘plab;

Tutib turmaydigan konstruksiyalarni muayyan transport inshootlarga konstruksiyalarni buyurtma hajmi bo‘yicha qabul qilish kerak.

6.3 Konstruksiyalarni qabul qilishda natijalar asosida amalga oshirish kerak:

- hom ashyo va materiallar verifikatsiya (kirish nazorati);
- konstruksiyalarni ishlab chiqarish jarayonida bajariladigan amaliyotlar nazorati;
- armatura, o‘rnatish qismlari va stropovka mahsulotlarning qabul qilish nazorati;
- beton konstruksiyasining davriy sinovlari;
- beton konstruksiyasining qabul-qilish qoidalari sinovlari;
- tayyor konstruksiyalarning qabul-qilish qoidalari sinovlari;

6.4 Konstruksiyalarni ishlab chiqarishda tezkor nazoratni o‘tkazish hajmi va tartibini o‘rnatilgan tartibda tasdiqlangan ishlab chiqarish korxonasining texnologik hujjati asosida belgilanishi kerak.

6.5 Armatura, o‘rnatish qismlari va stropovka mahsulotlarning qabul qilish nazorati quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha o‘tkazilishi kerak:

- payvandlangan armatura va o‘rnatish qismlarining birikmalarning mustahkamligi;
- to‘qilgan armaturalarni mahsulotlarning to‘qilish sifati
- shakllar va o‘lchamlar muvofiqligi.

Nazorat quyidagicha amalga oshirilishi kerak:

- tutib turmaydigan konstruksiyalar to‘pidan kamida 3 ta mahsulot;
- har bir tutib turuvchi konstruksiyaning barcha armaturalari.

STANDARTLAR INSTITUTI "AVGSTANDART" DAC - 03.03.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

6.6 R(P) turdagi rigelga va KP(ПС) turdagi kuchlantirilmagan butun kesimining ko‘prik plitasiga o‘rnatilgan armaturani ko‘rib chiqish bo‘yicha “Yashirin ishlar bo‘yicha dalolatnoma” rasmiylashtirilgan bo‘lishi kerak.

6.7 Beton konstruksiyalarni ko‘rsatkichlar bo‘yicha davriy sinovlar:

- zichligi;
- sovuqqa chidamliligi;
- suv o‘tkazmasligi.
- bo‘shatish mustahkamligi

Konstruksiyalarni massaviy ishlab chiqarishni boshlashdan oldin, ularga konstruktiv o‘zgartirishlar kiritilsa, ishlab chiqarish texnologiyasini o‘zgarishida, ko‘rinishini va sifatini o‘zgarishida qo‘llaniladigan hom ashyo materiallar, lekin kamida 6 oyda bir marta seriya ishlab chiqarishda o‘tkazilishi kerak.

6.8 Beton konstruksiyalarni ko‘rsatkichlar bo‘yicha qabul qilish-topshirish sinovlari:

- loyiha yoshidagi beton mustahkamligi har bir beton to‘plari uchun o‘tkazish kerak;
- betonning chiqariladigan mustahkamligiga quyidagicha amalga oshirilishi kerak:

• har bir tutib turuvchi konstruksiyalar donalab;

• bir pog‘onali nazorat tanlash usuli bilan, tutib turmaydigan konstruksiyalar to‘p hajmidan kelib chiqib ГОСТ 13015 bo‘yicha tanlash hajmi.

6.9 Tayyor konstruksiyalarning qabul qilish-topshirish sinovlari ko‘rsatkichlar bo‘yicha:

- germetik parametrlar aniqligi va konstruksiya shakllari;
- beton yuzasi va tashqi ko‘rinish miqdori;
- betonning himoya qatlamining qalinligi va armatura joylashishi;
- kirishgan yoriqlar eni bo‘yicha quyidagilarni o‘tkazish kerak:
- tutib turuvchi konstruksiyalar uchun donalab;

namunaviy bir bosqichli nazorat usuli yordamida yuk ko‘tarmaydigan konstruksiyalar to‘pining hajmiga qarab ГОСТ 13015 bo‘yicha namuna hajmi aniqlandi.

6.10 Tayyor konstruksiyalar qabul qilish-topshirish sinovlari ko‘rsatkichlar bo‘yicha:

- stropovka mahsulotlarning mavjudligi va holati;
- ochiq armaturalarni yo‘qligi;
- ishchi yuzalarda yog‘li va zangli dog‘lar yo‘qligi;
- tamg‘alash yozuvlarni mavjudligi va to‘g‘riligi butun nazorat usuli bilan amalga oshirish kerak.

6.11 KP(ПС) turdagi kuchlanmaydigan armatura bilan butun kesimli ko‘prik plitalari mustahkamlikka, qattiqlikka va yoriqqa chidamlilik sinovlar ishlab chiqarish texnologiyasini o‘zgarishida, ularga konstruktiv o‘zgartirishlar kiritishda, massaviy ishlab chiqarishdan oldin amalga oshirilishi kerak.

6.12 KP(ПС) turdagi plitalardan tashqari konstruksiyalar, agar ushbu standart talablari ko‘rsatkichlar bo‘yicha quyidagicha ta’minlansa, mustahkamligi va yoriqqa chidamliligini qabul qilish kerak:

- loyiha yoshidagi beton mustahkamligi;
- bo‘shatish mustahkamligi;
- beton himoya qatlamining qalinligi va armaturani joylashishi;
- armatura va o‘rnatish qismlari payvand birikmalar mustahkamligi;
- armatura prokatining diametri va mexanik vositasi;
- armatura mahsulotlarning asosiy o‘lchamlari.

STANDARTLAR INSTITUTI #AW6TADQQAC - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

6.13 Har bir qabul qilingan tutib turuvchi konstruksiyalar va tutib turmaydigan konstruksiyalar to‘pi ГОСТ 13015 bo‘yicha sifat haqida hujjat bilan qo‘shib jo‘natilishi kerak.

6.14 Sifat haqida hujjatda quyidagilar ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak:

- konstruksiyaning nomi va markasi;
- ushbu standartning belgilanishi
- konstruksiyaning nomlanishi;
- betonning loyihaviy yoshdagi siqilishga mustahkamlik sinfi;
- haqiqiy bo‘shatish mustahkamligi, kgf/cm^2;
- betonning o‘rtacha mustahkamligi, kg/m^3;
- betonning sovuqqa chidamlik bo‘yicha markasi;
- betonning suv o‘tkazmaslik bo‘yicha markasi;
- konstruksiyalarning ishlab chiqarish sanasi (kuni, oy, yil);
- to‘liq nomlanishi, ishlab chiqarish korxonasining haqiqiy va yuridik manzili yoki uning tovar belgisi (mavjud bo‘lsa);
- konstruksiyalarni faqat O‘zbekiston Respublikasi hududida sotish uchun davlat tilida «O´ZBEKISTONDA ISHLAB CHIQARILGAN» yozuvi;
- konstruksiyalarni eksportga yetkazib berishda shartnoma (kontrakt) ga asosan ingliz tilida yoki import qiladigan mamlakat tilida «MADE IN UZBEKISTAN» yozuvi;
- konstruksiyalar miqdori;
- TNB shtampi yoki konstruksiya sifatiga mas’ul shaxs imzosi;
- hujjatning raqami va berilgan sanasi;

6.15 “Sifat to‘g‘risidagi hujjat”dagi qo‘shimcha ko‘rsatkichlar:

- konstruksiyalar zaharli emas, yong‘in-portlash jihatidan xavfsiz, tayyorlash, saqlash, tashish va foydalanish chog‘ida xavf tug‘dirmaydi;
- konstruksiyalarni saqlash, tashish va o‘rnatish ushbu standartning 8 va 9-bo‘limlari talablariga muvofiq amalga oshirilishi kerak;
- iste’mol chiqindilari utilizatsiya qilinishi kerak yoki “ikkilamchi moddiy resurslar” sifatida ishlatilishi mumkin;
- ishlab chiqaruvchi iste’molchi tomonidan ushbu standart talablariga muvofiq tashish, saqlash, o‘rnatish va foydalanish shartlariga rioya qilinganda konstruksiyalar sifatini kafolatlaydi.

6.16 Sinovlar konstruksiyalarning har bir tur o‘lchamning bitta birlik soniga ushbu milliy standart talablari bo‘yicha akkreditatsiyalangan laboratoriyalarda o‘tkaziladi.

7 Nazorat usullari

7.1 Xom ashyo materiallarni qo‘llashda verifikatsiyani (sifatning kirish nazorati) quyidagicha amalga oshiriladi:

- portlandsement ГОСТ 310.1, ГОСТ 310.2, ГОСТ 310.3, ГОСТ 310.4 bo‘yicha;
- zich joylashgan tog‘ jinslardan shag‘al ГОСТ 8269.0 bo‘yicha;
- qurilish ishlari uchun qum ГОСТ 8735, ГОСТ 31424 bo‘yicha;
- armatura prokati O‘z DSt 3025, ГОСТ 12004, ГОСТ 14019 bo‘yicha;
- qurilish konstruksiyalari uchun prokat ГОСТ 27772 bo‘yicha.

7.2 Loyiha yoshidagi beton konstruksiyasi mustahkamligi nazorati ГОСТ 10180 bo‘yicha ishchi tarkibidagi beton aralashmadan ishlab chiqarilgan, nazorat namunalar seriyasida ГОСТ 18105 bo‘yicha.

7.3 Beton konstruksiyalarni bo‘shatish mustahkamligi ГОСТ 17624 bo‘yicha ultratovush ta’sir uskunasi bilan, ГОСТ 22690 yoki O‘z DSt ISO 1920-7 bo‘yicha mexanik ta’sir uskunasi

STANDARTLARNI TEKSHIRISH BO‘YICHA ORGANIZATSIYA

bilan yoki mazkur milliy standartining 7.2-bandiga asosan nazorat namunalari bo‘yicha buzilmaydigan usul bilan.

7.4 Beton konstruksiyalarning davriy sinovlari quyidagilarda amalga oshirilishi kerak:

- sovuqqa chidamlilik ГОСТ 10060 bo‘yicha;
- zichligi ГОСТ 12730.1 bo‘yicha;
- suv o‘tkazmasligi ГОСТ 12730.5 bo‘yicha.

7.5 Armatura, o‘rnatish qismlari va stropovka mahsulotlari nazorati ГОСТ 10922 bo‘yicha.

7.6 Payvandlandlash sifatini nazorat qilishni ГОСТ 23279 bo‘yicha amalga oshirish lozim.

7.7 Konstruksiyalarning chiziqli o‘lchamlari, yuzalarning sifati va tashqi ko‘rinishi, o‘rnatish qismlari va strapovka mahsulotlarning joylashishi, armatura va o‘rnatish qismlarining geometrik parametrlarini nazorati o‘lchov vositalari ГОСТ 26433.1 bo‘yicha o‘lchovlarni bajarish qoidalari bo‘yicha:

ГОСТ 427 bo‘yicha chizg‘ichlar;

ГОСТ 7502 bo‘yicha ruletka;

ГОСТ 166 bo‘yicha shtangensirkul;

ГОСТ 162 bo‘yicha chuqurlik o‘lchaydigan shtangenglubinometr.

7.8. Yoriqlarni kengligi ГОСТ 26433.1 bo‘yicha 0,05 mm aniqlikda mikroskop bilan.

7.9 Beton himoya qatlamining qalinligi va armaturani joylashishi ГОСТ 22904 bo‘yicha.

7.10 КР(ПС) turdagi kuchlanmaydigan armatura bilan butun kesimli temirbeton plitalarning mustahkamligi, qattiqligi va yoriqqa chidamlilikni sinash va baholash ushbu standartning A ilovasiga muvofiq sinov sxemasi bo‘yicha nazorat og‘irligiga muvofiq ГОСТ 8829 bo‘yicha yuklash bilan.

7.11 Tabiiy radionuklidlarining (A_{sam}) o‘ziga xos samarali faolligi to‘ldiruvchilar va bog‘lovchilarning solishtirma samarali faolligi qiymati ГОСТ 30108 ga muvofiq xom ashyo materiallari uchun sanitariya-epidemiologik xulosa bo‘yicha yoki ushbu standartninf 4.4.7 bandiga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

7.12 Armatura prokatining gamma nurlanishining ekvivalent dozasi maksimal quvvatini nazorat qilish [6] talablariga muvofiq armatura prokatining ma’lumotlari bo‘yicha.

7.13 Barcha o‘lchash va nazorat vositalari belgilangan tartibda tekshirilgan yoki metrologik attestatsiyadan o‘tkazilgan bo‘lishi kerak.

7.14 Tamg‘alashning to‘g‘rililigi ko‘z bilan tekshirish usuli (vizual) yordamida tekshiriladi.

8 Transportda tashish va saqlash

8.1 Gorizontal ish holatidagi konstruksiyalarni transportda tashish uchun ishchi holatda, vertikal ish holatidagi konstruksiyalar montajdan oldin qurilish maydoniga ish holatida konstruksiyalarni olib kelish bilan qoliplab amalga oshirilishi kerak:

Qurilish maydonidagi konstruksiyalarni gorizontal holatdan ish holatiga (vertikal) olib kelishi, stropovka mahsulotlarni yog‘och bruslarda beton parchalaridan xalos bo‘lishi bilan amalga oshiriladi.

8.2 Konstruksiyalarni transportda tashish quyidagicha amalga oshiriladi:

- O‘rnatilgan tartibda tasdiqlangan, temir yo‘l platformalariga yuklash sxemasi muvofiq temir yo‘l transportida;
- yirik gabaritli yuklarni tashish qoidalari bilan avtomobil transportida;
- maxsus jihozlangan avtomobil-turniketlarda;

STANDARTLAR INSTITUTI "AVISTANDART" 23.08.2006 "TIBBIY STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

- uzun o‘lchamli avtomobillarda.

8.3 Konstruksiyalarni avtomobili transportida tashish quyidagicha amalga oshirish kerak:

- yirik o‘lchamli konstruksiyalar yog‘ochli taglik ustida balandlik bo‘yicha bir qatorda;

- balandligi bo‘yicha ikki donadan ko‘p bo‘lmagan shtabeldagi yassi plitali konstruksiyalar shtabeldagi konstruksiyalar orasidagi taglikni o‘rnatish bilan yog‘och tagliklarda;

- yog‘och taglikda bir qator egilgan holatdagi mayda donali konstruksiyalar.

8.4 Avtomobil transporti bilan tashishda konstruksiyalarni sifatini saqlash uchun transport harakatlanishi doimiy tezlikda keskin harakatsiz amalga oshirilishi kerak.

- asfalt beton qoplamali yo‘llarda 40 km/h gacha;

- shag‘al-qum qoplamali yo‘llarda 10 km/h gacha;

- temiryo‘llardan o‘tishda 10 km/h gacha;

8.5 Konstruksiyalarni ishlab chiqaruvchi va iste’molchida ГОСТ 13015 bo‘yicha zich tekislangan asosli yog‘och tagliklarda saqlanishi kerak:

- gorizontal ish holatidagi konstruksiyalar ish holatida;

- vertikal ish holatidagi konstruksiyalar formovka holatida;

8.6 Plitali konstruksiyalarni saqlashda shtabellar balandligi 2,0 metrdan oshmasligi kerak.

8.7 Prokladkalar va tagliklar barcha konstruksiya eni vertikal bo‘yicha bittasi ikkinchisini ustiga loyiha hujjatlarida ko‘rsatilgan tiralgan o‘qi bo‘yicha o‘rnatish kerak.

8.8 Tagliklarning qalinligi 50 mm, tagliklarning qalinligi esa stropovka buyumlaridan 20 mm yuqori bo‘lishi kerak.

8.9 Yuklash-tushirish jarayonlari ГОСТ 12.3.009 ga muvofiq amalga oshirilishi kerak. Ilgakka ulangan arqonlarning oraliq burchagi 90 ° dan oshmasligi kerak.

8.10 Konstruksiyalarni yuklash-tushirish jarayonlarida ko‘tarilishi, tushirilishi va joyini o‘zgartirish bo‘yicha jarayonlari konstruksiyalarni deformatsiyadan va xavfsizlik ta’minlashni saqlash maqsadida beton siniqlaridan halos bo‘lish maqsadida silkinmasdan, stropovka mahsulotlari uchun silliq bajarilishi kerak.

8.11 Bitta xalqada tola bilan tushirish va yuklash orqali konstruksiyalarini tushirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

9 Foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar

9.1 Konstruksiyalar qo‘llanilgan transport inshootlarini qurishda, [14] va [9] talablariga rioya etish kerak.

9.2 [14] da qamrab olinmagan ishlar o‘rnatilgan tartibda tasdiqlangan aniq transport inshootlarga IIL (ППР) “Ishlab chiqarish ishlarini loyihalari”da ko‘rsatilganlarga muvofiq amalga oshirish kerak.

9.3 Kontruksiyalar qo‘llanilgan transport inshootlari joriy transport inshootlarini tarkibi bo‘yicha hujjatlarda belgilangan, transport inshootlari doimiy (rejali tartibda) davriylik bilan [15] talablariga muvofiq tekshirilishi kerak.

10 Ishlab chiqaruvchi kafolatlari

10.1 Ishlab chiqaruvchi konstruksiyalarni iste’molchi tomonidan tranportda tashish, saqlash, montaj va foydalanish shartlariga rioya etgan holda ushbu milliy standart talablariga muvofiqligini kafolatlaydi.


10.2 Konstruksiyalarning ishonchliligi loyihalashtirish, ishlab chiqarish, montaj qilish va foydalanishda talablar majmuasi bilan ta’minlanadi.

STANDARTLAR INSTITUTI #AW6TADQQAC - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

A ilova

(normativ)

КР(ПС) plitalarini sinovdan o‘tkazish va yuklash vaqtincha harakatlanadigan yuklar A14 va УК (НК) 100 ostida



Sinovlarni faqat beton plitalari loyiha mustahkamligiga yetgandan keyin amalga oshirilishi kerak.

Nazorat yuklarga yuklash qurilmalar massasiga qo‘shilgan bo‘lishi kerak.

Nazorat yuklarini yuklashdan oldin plitalarga tushirilgan “C” nuqtasidagi egilish o‘lchanadi.

Plitalarni sinashda ГОСТ 8829 ga amal qilinadi.

Mustahkamlikka tekshirishda nazorat yuklari

Sinashda plitalarni buzish xususiyati	**КР(ПС)** 6.99.30-100 Lp = 5,6 m	
	P, t	0,85 P, t
1 Bo‘ylama armaturani oquvchanligi boshlanishigacha	28,27	24,03
1 Bo‘ylama cho‘zilgan armaturalar oquvchanligi 2 Normal kesimda siqilgan zonada maydalash	39,52	33,59
1 Bo‘ylama armaturalar uzilishi 2 Normal kesimda siqilgan zonada betonni maydalash va egri yoriqlar bo‘yicha betonni buzish	45,37	38,56

Qattiqligini tekshirish bo‘yicha nazorat yuklari

Plita markalari	Lp, m	Nazorat yuklari, P, t	C nuqtadagi nazorat egilish plitalari, mm	Nazoratdan yo‘l qo‘yilgan xaqiqiy egilish
КР(ПС) 6.99.30-100	5,60	15,25	4,30	1,23

Yoriqqa chidamliligini tekshirish bo‘yicha nazorat yuklari

Plita markalari	Lp, m	Nazorat qilish yuklari, P, t	Yoriqning ochilishini nazorat qilish eni, mm
КР(ПС) 6.99.30-100	5,60	15,45	0,01

STANDARTLAR INSTITUTI #AW6TADQQAC - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

Bibliografiya

[1]	SHNQ 2.01.01-22	Loyihalash uchun iqlimiy va fizikaviy-geologik malumotlar
[2]	SHNQ 2.05.03-23	Ko‘priklar va quvurlar
[3]	SHNQ 5.01.23-08	Yig‘ma va monolit beton, temirbeton buyumlar va konstruksiyalar betonlarini tayyorlash uchun sement sarfining namunaviy me’yorlari.
[4]	SHNQ 2.03.11-24	Bino va inshootlarning qurilish konstruksiyalarini korroziyadan himoya qilish
[5]	SanQvaN 0193-06	Radiatsiya xavfsizligi normalari (rxn 2006) va radiatsiya xavfsizligini ta’minlashning asosiy sanitar qoidalari (RXTASQ 2006)
[6]	UzTR.319-004-2015	Metallurgiya mahsulotlari xavfsizligi to‘g‘risidagi umumiy texnik reglament
[7]	SanQvaN 0325-16	Ish joylarida ruxsat etilgan shovqin darajasi bo‘yicha sanitariya normalari
[8]	SanQvaN 0326-16	Ish joylaridagi umumiy va lokal tebranishlarning sanitariya normalari
[9]	SHNQ 3.01.02-23	Qurilishda xavfsizlik texnikasi
[10]	SanQvaN 0324-16	Ishlab chiqarish korxonalari mikroiqlimining sanitariya-gigiyenik normalari
[11]	SHNQ 2.04.05-22	Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash
[12]	ShNQ 2.09.02-23	Korxonalarning ishlab chiqarish hamda ma’muriy-maishiy bino vainshootlari. Loyihalash talablari
[13]	SanQvaN 0300-11	O‘zbekistonda ishlab chiqarish chiqindilarini yig’ish, inventarizatsiya qilish, tasniflash, zararsizlantirish, saqlash va yo‘q qilishni tashkil etishning sanitariya qoidalari va normalari
[14]	QR 06.04-23	Ko‘priklar va quvurlar
[15]	SHNQ 3.06.07-23	Ko‘priklar va quvurlar. Tekshirish, sinash va diagnostika qilish qoidalari

STANDARTLAR INSTITUTI #AW6TADQQAC - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

Bibliografik ma’lumotlar

MUT 58.5121
SMT 93.040

Muhim so‘zlar: transport chorrahalari, ko‘priklar, ko‘prik yo‘li, osma quvur, osma ko‘prik, tunnellar, konstruksiyalar.

STANDARTLAR INSTITUTI #AW6TADQQAC - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ